
Sektor rahbari yoshlar bilan uchrashdi

Rishton tumanida sektor rahbarlari ishtirokida yoshlar bilan uchrashuvlar va ochiq muloqotlar davom etmoqda.

Bugun Rishton tumani DSI boshlig'i, 4-sektor rahbari Saidaxon Nurmatova 4-sektor hududidagi yoshlari faoliyati, qiziqishlari, takliflari bilan tanishish, ularni qiynayotgan muammolarni aniqlash va hal qilish maqsadida yoshlar bilan uchrashdi.

Erkin, o'zaro ochiq muloqot shaklida o'tgan uchrashuvda sektor rahbarlari yoshlarning taklif va muammolarini o'rgandi, ularni o'ylantirayotgan masalalar bilan qiziqdi.

Uchrashuvda, asosan, yoshlarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish, ta'lim krediti ajratish, bolalar nafaqasi olish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, oliy o'quv yurtlari yotoqxonalariga joylashish kabi masalalar bilan bog'liq murojaatlari eshitildi.

Yoshlar tomonidan ko'tarilgan shu kabi masalalar va tashabbuslarga aniq hamda atroflicha javob berilib, ularning yechimi yuzasidan shu joyning o'zida zarur chora-tadbirlar belgilandi. Muddat talab etadigan murojaatlar esa tegishli mas'ullarga biriktirilib, ijrosi nazoratga olindi.

2024-08-05 15:03:33